



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI K E N G A S H I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

2022 - yil 28 - yanvar

VI-52-14-7-103-K/22

Samarqand tuman hokimligi

2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining 2021-yil 23-apreldagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 166/27-sonli qaroridagi namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik ikkinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 23-apreldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 166/27-sonli qaroridagi namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri Sh.Voseyevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar va tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha

ma'lumotlar 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. 2021-yilda o'tkazilgan Tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga qayta tiklash miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2-3-ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri (Sh.Voseyev) hamda tuman G'aznachilik bo'linmasi (I.Elboyev)lar shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga belgilangan tartibda qayta tiklash va tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (B.Xonkeldiyev) tashabbusli budgetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budget" axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va keyingi har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (B.Xusanov) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Ganiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash Raisi



N.Mavlonov

Халқ депутатлари Самарқанд
туман Кенгашининг
2022 йил 28 январдаги
VI-52-14-7-103-К/22-сон қарорига
1-илова

**Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha
MA'LUMOT**

1-jadval

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	-
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*	3 543 000,00
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**	2 210 000,00
3.1	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	2 150 472,0
3.2	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	1 333 000,00

2-jadval

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar umumiy uzunligi	4	Umumiy uzunligi	3,161 km	1 392 506,5
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2	80 000,0
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2	591 372,1
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash soni	0	soni		
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash soni	0	soni		
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash umumiy	6	Umumiy uzunligi	2,610 km va 2 dona nasos	37 865,3
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish	1	Chiroqlar soni	19	24 571,2
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	0	Tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar	1	soni	1	24 156,8
	jami				2 150 472,0

Izoh:

* Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning 1-ilovasidagi Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga xaqiqatda o'tkazilgan mablag'lar ustunining Jami ajratiladigan mablag'lar qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

** Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning 2-ilovasidagi Ajratilgan mablag'lar ustunining jami qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

Халқ депутатлари Самарқанд туман Кенгашининг
2022 йил 28 январдаги
VI-52-14-7-103-К/22-сон қарорига
2-илова

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi yuzasidan

MA'LUMOT

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga xaqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh
			1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5250-sonli Farmoyishi asosida respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar				500,0		500,0	-	
2	Tuman (shahar) byudjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		544,0	1 300,0	1 180,0	-	3 043,0	19,0	
2.1	Shu jumladan:	erkin qoldiq mablag'lari	260,0				60,0	-200,0	2021 yil yanvar oyida erkin qoldiq mablag'lari ishlatilib bo'linganligi sababli kam mablag' o'tkazilgan
2.2		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	284,0	1 300,0	1 180,0		2 983,0	219,0	2021 yil yanvar oyida erkin qoldiq mablag'lari ishlatilib bo'linganligi sababli, daromadlarning oshirib bajarilgan I-chorak qismi hisobidan ko'p mablag' o'tkazilgan
2.3		davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar						-	
2.4		elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar						-	
2.5		byudjetdan ajratiladigan mablag'lar kamaytirilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar						-	
	Jami ajratiladigan mablag'lar		544,0	1 300,0	1 680,0	-	3 543,0	19,0	

Халқ депутатлари Самарқанд туман Кенгашининг
2022 йил 28 январдаги
VI-52-14-7-103-К/22-сон қарорига
3-илова

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan MA'LUMOT

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlar soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)					
			Onlayn ovozlar	Oflayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan xisobvaraқ	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Qoldiq mablag'lar
1	1040300005	107	0		107	Tumandagi Chaman MFYning manan eskirgan suv quvurlarini yangisiga almashtirish	401722860182337013990018002	4 500,0	1 971	4 500	1 971	2 529
2	1040300006	44	14		30	Tumandagi Talibarzui Bolo MFYning suv quvurini yangisiga almashtirish	401722860182337013990018005	20 000,0	13 800	20 000	13 800	6 200
3	1040300007	43	23		20	Tumandagi Navobod MFYning suv quvurlarini yangilash	401722860182337013990018006	11 000,0	5 024	11 000	5 024	5 976
4	1040300114	63	1		62	Tumandagi Gulobod MFYdagi Xotira maydonchasini asfalt qilish	401722860182337045204110004	30 000,0	29 929	30 000	29 929	71
5	1040300115	102	10		92	Tumandagi Quyi Qaynama MFYning ichki yo'lini asfalt qilish	401722860182337045204110002	700 000,0	699 418	700 000	699.418	582
6	1040300116	69	1		68	Tumandagi Quyi Chordara MFYning ichki yo'lini asfalt qilish	401722860182337045204110003	270 000,0	269 690	270 000	269.690	310
7	1040300003	60	1		59	Tumandagi Sho'rboi MFYning eskirgan suv tarmog'ini almashtirish	401722860182337013990018003	18 000,0	9 720	18 000	9 720	8 280
8	1040300059	110	0		110	Tumandagi Yangijoy MFYning manan eskirgan suv tarmog'ini yangisiga almashtirish kerak	401722860182337013990018001	15 000,0		15 000	-	15 000

9	1040300009	133	58		75	Tumandagi Yangi Obod MFYning ichki ko'chalarini asfalt qilish	401722860182337045204110001	396 000,0	393 469	396 000	393.469	2 531
10	1040300086	51	3		48	Tumandagi Parrandachilik MFYning M1 ko'p qavatli binoda Konalizasiya tarmog'ini ulash	401722860182337013990018004	25 000,0	24 157	25 000	24 157	843
11	1040300064	42	16		26	Tumandagi 22-DMTT binosini qayta ta'mirlash	401722860182337091100251002	500 000,0	491 505	500 000	491.505	8 495
12	1040300002	37	3		34	Tumandagi Zaxlik MFYning suv inshooti nasosini almashtirish	401722860182337013990018007	10 500,0	7.350	10.500	7.350	3 150
13	1040300042	7	0		7	Tumandagi Navobod MFYning ichki ko'chalariga tungi yoritkichlar o'rnatish	401722860182337064200110001	30.000,0	24.571	30.000	24.571	5.429
14	1040300011	196	3		193	Tumandagi 47-umumta'lim maktab binosini kapital ta'mirlash	401722860182337092100075001	10 000,0	10 000	10 000	10 000	-
15	1040300008	117	0		117	Tumandagi 21-DMTTni kapital ta'mirlash	401722860182337091100251001	100 000,0	99 866,9	100 000	99 867	133
16	1040300013	65	10		55	Tumandagi 1-umumta'lim maktabiga mini stadion qurish	401722860182337092100075002	70 000,0	70 000,0	70 000	70 000	-
	Jami:	1 246						2 210 000	2 150 472			59 528

Izoh:

* Tadbirni amalga oshirish qiymati ustunida loyiha-smeta xujjatlariga asosan pudratchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomada tadbirni amalga oshirish uchun nazarda tutilgan qiymat aks ettiriladi.”.